

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal



Jild: 02 Nashr: 05 (2023)

www.mudarrisziyo.uz



MAKTABDA “BOBURNOMA” ASARINI O‘RGANISH

G'anijonova Nodira

Andijon viloyati Asaka tumani 62-umumta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabda Bobur shaxsi va uning “Boburnoma” asarini o'rganish yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: “Boburnoma”, tarixiy shaxslar, tahlil, sharh, insonparvarlik.

O‘zbek adabiyoti tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va uning “Boburnoma” asari alohida o‘rin tutadi. Asarda shoir yashagan davr voqealari aniq, to‘liq va bevosita muallifning mulohazalari yordamida yoritilishi tarixga nisbatan xolislikni ta‘minlagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. 10-sinflarga mo‘ljallangan adabiyot darsligida “Boburnoma” asaridan parcha berilgan bo‘lib, parchada asosan tarixiy joylar, tarixiy shaxslar, tarixiy ahamiyatga molik voqealar bilan bir qatorda Boburning ichki kechinmalari, murakkab va ziddiyatli hayotidan lavhalar — keltirilgan. Bundan tashqari ayrim ruboiy va g‘zallarining yaratilish tarixi, sabablari, adibning tabiatshunoslikka, biologiyaga oid qarashlari ham ifoda etilgan.

Asar tili o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlar tiliga nisbatan sodda. O‘quvchi mustaqil shug‘ullansa ham tushuna oladi. Darslikda o‘qish uchun berilgan parcha 36 sahifa bo‘lib, 45 daqiqalik dars davomida o‘qib chiqishga ulgirish qiyin. Shuning uchun ushbu mavzuni o‘quvchiga mustaqil o‘qib kelish uchun topshirish zarur. Chunki mavzu ko‘lami keng, tahlil qilish uchun zarur o‘rinlar ko‘p. Voqealar ketma-ketligini sharhlash, tarixiy shaxslar va ular bilan bog‘liq hodisalarni to‘liqroq tushunish uchun o‘quvchiga o‘qituvchining ko‘magi zarur. “Boburnoma”ni o‘rganish uchun, avvalo, o‘zimiz atroflicha bilimga ega bo‘lishimiz talab etiladi. Asar matni va mazmuni ustida ishlash uchun reja belgilab olinadi. Masalan, asarda tarixiy joylar tasviri, tarixiy shaxslar tasviri, lug‘at bilan ishlash, voqealar jarayonida Boburning shaxsiy fazilatlarining namoyon bo‘lishi kabilar.

Asarda uchrovchi shaxs nomlarini o‘rganish. 10-sinf darsligida berilgan parchada Sulton Husayn mirzo (Boyqaro) , Shayboniyxon, Nosir Mirzo, Jahongir mirzo, Badiuzzamon, Muzaffar mirzo, Muhammad Burunduq barlos, Zunnun arg un, Qosimbek kabi 40 dan ortiq shaxs nomlarini sanash mumkin. Bularning orasida Boburga chin yo‘ldosh va maslahatchi bo‘lganlari, o‘z iltifotiga sazovar qilib, adibning hayotida chuqur iz qoldirganlari ham bor. Oqituvchi, avvalo, bu insonlarning tarix sahnasida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida oquvchiga ma'lumot berib o‘tishi zarur.

Tarixdan malumki, Husayn Boyqaro Hirot taxtini boshqarayotgan paytda Bobur Andijonni tashlab chiqib ketgan, temuriylar avlodidan bolganligi uchun panoh izlab qarindoshlaridan yordam so‘rab borgan edi. U yerda adib Muhammad Burunduqbek va Zunnun arg‘un bilan suhbatlashgan, ular Boburning Shayboniyxonga qarshi kurashish uchun yagona sarkarda tayin etish haqidagi so‘zlarini ma'qullamagan. Shuning natijasida sarkarda Bobur Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘lgan.

Boburning tarixiy shaxslar bilan muloqoti jarayonida uning ichki kechinmalari, xarakter xususiyatlari, ma'naviy qiyofasi namoyon bo'ladi. Asarning ana shu o'rinlarini o'quvchilarga alohida tushuntirib o'tish zarur. Chunki o'quvchilar faqat voqealar rivojini emas, o'qilgan parchani mulohaza qila olishni ham bilishi zarur.

Masalan, asarda shunday o'rin bor: "Shimol tarafdagi shahnishinga bir-biriga qaratib ikkita to'shak soldilar, to'shaklarning yonlari shimolga qaragan edi. Bir to'shakda Muzaffar mirzo va men o'tirdik. Yana bir to'shakda Sulton Mas'ud mirzo va Jahongir mirzo o'tirdilar. Muzaffar mirzoning uyida mehmon bo'lganimiz uchun Muzaffar mirzo meni o'zidan yuqoriga o'tkazdi".

Yoki: "Biroq ko'nglimdan o'tdiki, Badiuzzamon mirzo og'adir, uning qo'lidan va uning uyida ichmay, inisining qo'lidan va inisining uyida ichsam, xotiriga nima kelgay deb, bu ikkilanishimni aytdim. Bu uzrimni ma'qul deb, bu suhbatda may taklif qilmadilar". Aynan ana shu o'rinlarda adibning insoniy fazilatlarini, o'zgalarni hurmat qila olish va hurmat talab qila olish kabi xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari adib hayotida uchragan ayrim voqealar borki, ular Boburning nafaqat shoh, balki inson sifatidagi mulohazalarini, dunyoqarashini ifoda etadi. Masalan, "Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir-bir yarim shar'iydan ortiq ko'chilmas edi. Qor tepar kishi men edim, on-on besh ichki yaqinlar va Qosimbek edi. Ikki o'g'li — Tangriberdi va Qambar Ali bilan yana ikki -uch navkar ham bor edi. Ushbu kishilar yayov yurib, qor tepar edik. Har kishi 7-8 - 10 qari ilgari yurib qor tepar edi. Har qadam qo'yganda beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borgandan so'ng ilgari kishi holdan toyib to'xtar, yana bir kishi oldinga o'tardi. Bu o'n, o'n besh - yigirma kishi yayov borib qorni tepgach, bosh otni tortish imkoni bo'lardi. Bosh ot tortilar, uzangisigacha, qornigacha bota-bota bu bosh ot ham 10-15 qadamcha yo'l yurib toliqar edi. Bu otni chetga tortib, boshqa bir bo'sh ot ilgari tortilar edi. Qolgan barcha yigitlar va bek atalganlar otlaridan ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilgan yo'lga kirib, boshlarini quyi solib kelishardi. Kishiga biror narsa taklif qiladigan yoki zo'rlik qilish payti emas edi. Har kimning himmati va jur'ati bo'lsa, bunday ishlarni o'zi tilab qiladi". Yoki "Ko'plar ot ustida tong ottirdi, G'or torroq ko'rindi. Men g'orning og'zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko'ksimgacha qazidin, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo'ldi, o'sha yerga o'tirdim. Har qancha: "G'orga kiring" deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo'ronda, nmen issiq uyda va istirohatda o'tiramanmi deb o'yladim. Munda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog'atda bolaymi?! Bu mutuvvat va hamjihatlikdin yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiy maqqol bor: "Do'stlar bilan birga bo'lgan o'lim to'ydir". Yuqorida keltirilgan o'rinlarda Boburga xos bo'lgan insonparvarlik fazilatlarini ko'rinib turibdi. Asarni to'liq tahlil qilish orqali o'quvchilarni Bobur shaxsi va ijodiga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 10-sinf adabiyot darsligi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017
2. 9-sinf adabiyot darsligi Toshkent "Yangiyo'l polygraph servis" 2010
www.ziyouz.com kutubxonasi " "Boburnoma " asrori kaliti" to'plami